

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ВА МАКТАБ ТА’ЛИМИДА БОЛАР АДАБИЙОТИ

Sa’dullayeva Maxliyo A’zam qizi

*Toshkent shahri Yunusobod tumani 5-sonli umumta ’lim maktabing o’zbek
tili fani o’qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim va maktab ta’limida bolalar adabiyotining o’rni, o’quvchilarining yoshi, saviyasi bo‘yicha qanday badiiy asarlar o‘qishi kerakligi, o’quvchilar hayotida xalq og‘zaki og‘zaki ijodi namunalarning qay darajada muhim o‘rin egallaganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Xalq og‘zaki og‘zaki ijodi, bolalar adabiyoti, kitobxonlik, bolalar folklori, alla.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль детской литературы в до школьном и школьном образовании, какие произведения искусства следует читать учащимся в зависимости от их возраста и уровня, а также какое значение имеет народное устное творчество в жизни учащихся предоставили всем.

Ключевые слова. Народное устное творчество, детская литература, чтение, детский фольклор и т.д.

Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasi hisoblanadi. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantira oladigan bo‘lishi zarur. Eng muhimi mavzular o‘quvchilar uchun tushunarli, sodda va albatta, qiziqarli tilda yozilgan bo‘lishi kerak.

Bolalar adabiyoti o‘quvchilarini vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli quroli, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Faqat

chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi.

Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi. Alisher Navoiy “Mahbub-ul qulub” kitobida tilni “ko‘ngil xazinasining qulfi”, deb ta’riflaydi. Buyuk shoir kishilami qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim.

Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so‘z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bolishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o‘tmishi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg‘ularini o‘stiradi.

Bugungi kunda qudratli qurol bo‘lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Bolalar kitobxonligini o‘quvchilarining pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11-12 yoshgacha).
3. O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar kitobxonligi – bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar va tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan butunlay bexabar bo‘ladilar. Shunga qaramay, kichkintoylar o‘zlarini qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o‘rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar, bog‘chalaida esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ya’ni ularga badiiy asarlardan parchalar o‘qib berishlari lozirn. Bu davr bolalariga o‘qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shu narsani ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim, xarakterli voqeа va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko‘pchiligini alla-qo‘sish, ertak topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan va yuqoridagi talablarga to‘la-to‘kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun qo‘l keladi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo‘sishqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, mehnati, xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham g‘oyatda e’tiborlidir.

Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba’zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlar ham alla, qo‘sish va ovutmachoqlar to‘qiydilar. Bularning hammasi bir bo‘lib faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi. Bolalar xalq og‘zaki ijodining pedagogika bilan bog‘lanishi alladan boshlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o‘zлari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof-m uhit bilan tanishadilar, ona-yurtga mehroqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalar – bu yoshdagi bolalar kitobxonligi avvalgisidan bir oz farq qiladi. Bu farq bolalaming yoshi va bilim saviyasi bilan bog‘liq. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bu ishni mustaqil bajaradilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi. Bu yoshdagi bolalami tevarak-atrofdagi turli voqeа-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan.

11-12 yoshdagi bolalar sehrli, fantastik ertak, sarguzasht, hikoya, qissa va dostonlarni sevib o‘qiydilar. Olloyoming “Fazogir chumoli” (ertakqissa), Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon” (ertak-qissa), Quddus Muhammadiyning “Erkinjon oyga chiqibdi” (doston), Yusuf Shomansurning “Oydan kelgan bolalar” (doston) va hozirgi kun yozuvchisi Sa’dullo Quronovning “Galaktikada bir kun” (1-2-qismlar) kabi asarlar bu yoshdagi bolalarga mo‘ljallab yozilgan. Bu yoshdagi bolalar o‘zлari mustaqil ravishda kitob o‘qib qolmay, balki o‘qigan kitoblaridagi qahramonlaming hatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar, zarur bo‘lsa ular ko‘rsatgan mardlik va jasoratlami takrorlashga hozirlanadilar.

O‘rta va katta yoshdagi bolalar – bu yoshdagi bolalarga xalqimizning shonli tarixi, bugungi hayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlami tavsiya etish mumkin. “Shiroq”, “To‘maris” kabi afsonalar bilan birga, Oybek, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Hakim Nazir, Sh.Sa'dulla, A.Obidjon, T.Adashboyev va boshqalarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Jahon bolalar adabiyotining A.S.Pushkin, L.Tolstoy, S.Servantes, D.Defo, J.Swift, E.Voynich, K.Chukovskiy, S.Ya.Marshak kabi nam oyandalari yaratgan asarlar bolalar dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta ’sir ko‘rsatadi. Ko‘rib o‘tganimizdek, bolalar adabiyoti o‘ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Zotan, bolalar

yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg‘a intilishga chaqiradi, hayotni chuqr anglashga va sevishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hodi Zarif. “O‘zbek sovet folkloristikasi tarixidan // O‘zbek sovet folklori masalalari. Tadqiqotlar. 1-kitob.” – T.: Fan. 1970
2. Mamasoli Jumaboyev. “Bolalar adabiyoti va folklor”. – T.: “O‘qituvchi”, 1990.
3. S.S.Avezov, D.B.Xamrayeva, “Maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarida folklor kichik janrlanirini o‘rgatish”. Toshkent. 2022-yil.